



## **O‘ZBEKİSTONNING TURİZM SALOHIYATI**

**Madrimova Guli Sanjarbek qizi**

UrDPI Milliy g‘oya ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi.

+998-88-603-03-02

[gulimadrimova36@gmail.com](mailto:gulimadrimova36@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Djumaniyozova Maryamjon**

Urganch davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa”kafedrası  
O‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistondagi sayyoqlik obyektlari, sayyoqlik to‘g‘risidagi qonun va farmoyishlar, O‘zbekistonda sayyoqlarga yaratilgan yengillik va qulayliklar, ularning haq-huquqlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В статье представлена информация о туристических зонах Узбекистана, законодательстве и нормативных актах в сфере туризма, удобстве и комфорте, создаваемых для туристов в Узбекистане, и их правах.

**Kirish so‘z:**O‘zbekturizm,misionerlik,turizm, transkontinental, me’moriy yodgorliklar, Buxoro, Samarqand, Xiva, BTSK, UNWTO, UNESCO.

**Ключевые слова:** Узбекский туризм, миссионер, туризм, трансконтинентальный, архитектурные памятники, Бухоро, Самарканд, Хива, БЦК, ЮНВТО, ЮНЕСКО.

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari,turfa xil iqlimi va tez suratlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga jalg qilmoqda.Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘lining savdo,iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib,Buyuk Ipak yo‘li orqali harakatlangan savdogarlar,sayyoqlar va misionerlarni o‘ziga jalg kelgan.O‘zbekiston shaharlari Buyuk Ipak yo‘li va transcontinental magistral hayotida muhim rol

o‘ynaydi.Mamlakatimiz hududidagi Xiva shahri,uning Ichan Qal'a majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar,Shahrisabz va Samarqand shaharlari YUNESCOning “Butun dunyo me’rosi”ning maxsus ro‘yxatiga kiritilgan.Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshootlar o‘tmish zamonlarini o‘zida aks ettirib,mamlakat tarixida kata ro’l o‘ynadi.Buyuk Ipak yo‘li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir.U “Ochiq osmon ostidagi muzey”,-deb nomланади. Shahar markazidagi Ichan Qal'a majmuasi 17-asr oxiri va 19-asrning birinchi yarmiga tegishli bo‘lib, bu qal’ada ko‘plab me’moriy yodgorliklar joylashgan. Qadim davrlarda Samarqand “Islom me’morchiligi marvaridi” nomi bilan atalgan. Buxoro shahridagi Ismoil Somoni maqbarasi,Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark,Minorai Kalon,Jonli labirint kabi ko‘plab masjid va madrasalar, karvonsaroylar Buxoroning tengi yo‘q marvaridi va ko‘rki hisobланади.Mustaqillik yillarda mamlakatimizda turizm sohasi nisbatan yangi sohalardan biriga aylandi Mustaqillikka erishgach davlatimiz tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi. 1992-yilning 27-iyulida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov farmoni bilan “O‘zbek turizm” milliy kompaniyasi tashkil qilindi. “O‘zbek turizm”ning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat. Bundan tashqari, milliy kompaniya Respublikadagi barcha turistik tashkilotlarning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, turizmnинг barcha yo‘nalishlarining rivojlanishini rag‘batlantiradi,kadrlar masalasi bilan shug‘ullanadi. 1993-yildan buyon bizning davlatimiz “Xalqaro turizm tashkiloti”

(UNWTO.1979) ning a’zosi hisobланади. 2004-yildan boshlab Samarqandda-Buyuk Ipak yo‘lining “yuragi”-da UNWTO ning transcontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda.

“Turizm sodda qilib aytganda dunyoni tushunib, dunyoni anglash, shu bilan birga dunyo sahniga chiqish demakdir”(Islom.A.K.

“Turizm asoslari” Toshkent. 2014)“ O‘zbek turizm” milliy komponiyasining 2004-yilning 13-sentabrdagi 23-son, Milliy xavfsizlik xizmatining 2004-yilning 29-sentabrdagi 9/1005-son,Ichki Ishlar vazirligining 2004-yilning 27-sentabrdagi 1/5/4-622-sonli qarori bilan “Sayyohlarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishi va ketishi tartibi to‘g‘risida”gi nizomi tasdiqlangan. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-

yil 28-iyuldagisi 360-sonli qaroriga muvofiq turizmga taalluqli boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasida turistik ekskursiyalarni amalga oshirish vaqtida kafolatlangan xizmat ko'rsatish va sayyoohlarni chet el safariga borishlarini rasmiylashtirish tartibini hamda chet elliq sayyoohlarni qabul qilish jarayonida va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet el safariga borishi chog'ida huquqlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash, turar joylarni kafolatlanishi hamda chet safaridan o'z vaqtida qaytishlari maqsadida ishlab chiqilgan.

Sayyoohlik sohasi dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. BMT[Birlashgan Millatlar Tashkiloti.] ning Jahon sayyoohlik tashkiloti ma'lumotiga ko'ra 2015-yilda dunyo bo'yicha 1.mldr 184.mln sayyoohlik qayd etilgan bo'lsa, 2016-yil yakuni bo'yicha ko'rsatgich 1.mldr 235.mln ya'ni, 3,9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015-yilda 1,5.trln dollarni tashkil qilgan. 2016-2017-yilda bu raqamlarda ham katta tafovut bo'lgan. Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi tomonidan berilgan bahoga ko'ra O'zbekiston sayyoohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Bugungi kunda yurtimiz jahon sayyoohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishga harakat qilmoqda. Yildan yilga sayyoohlarga yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklar darajasi oshmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barcha sohalar qatori turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirmoqda .

Xulosa qilib aytganda, Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirib, sayyoohlar oqimini yanada oshirish uchun , avvalambor yoshlarni tarixga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak, har bir yosh avlod o'z tarixini chuqur anglab yetsagina, o'z tarixini bilsagina, bu yurtga boshqa davlatlar qiziqish bildirib , sayyoohlar oqimi ham yanada oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.S.Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.Sh.Safarov  
G.R.Tursunova. “Turizm asoslari”. Toshkent.2014.
2. Internet sayti: [uzbekistanmissiongeneve@gmail.com](mailto:uzbekistanmissiongeneve@gmail.com)